

---

## **TILAK MAZMUNLI BIRLIKLARNING DINIY VA SOTSIOLOGIK XOSLANGANLIGI**

**Sulaymonova Husnida Haydarjon qizi**

Andijon davlat universiteti

e-mail: [sulaymonovahusnida123@gmail.com](mailto:sulaymonovahusnida123@gmail.com)

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada o`zbek xalqi nutqiy aktida keng qo`llaniladigan duo nutqiy janri tilak mazmunidagi birliklar sifatida olinib, ularning diniy va sotsiologik xoslanganligi haqida ba`zi mulohazalar berilgan.*

**Kalit so`zlar:** *duo qilmoq, duoibad, qarg`ishlar, mulozamat, lingvomadaniy kod, milliy kolorit.*

### **ABSTRACT**

*This article considers the genre of prayer, which is widely used in the Uzbek people`s speech act, as a unit of desire, and provides some comments on their religious and sociological characteristics.*

**Key words:** *to pray, supplication, curses, servise, linguocultural code, traditions*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье рассматривается жанр молитвы, широко используемый в речевом акте узбекского народа, как единица желания, а также даются некоторые комментарии к его религиозно-социологической характеристике.*

**Ключевые слова:** *молиться, моление, проклятия, служение, лингвокультурный код, традиции.*

### **KIRISH**

Duo qilmoq. Bu ibora o`zbek xalqi turmush tarzida keng qo`llaniladi. Duo qilmoq diniy mazmun kasb etuvchi urf-odat hisoblanib, o`zbeklarda arab istilosidan so`ng islom dini bilan birga tilovatdan so`ng bajariladigan harakat sifatida kirgan, ya`ni fотиha qilinayotganda aytiladi. Yoshi katta kishilar nutqida ko`p kuzatiladi. Umuman olganda, duo qilish nutqda gender xoslanish bilan ham bog`liq. Duo qilish ikki kaftni birlashtirib yuziga fотиha tortish bilan amalga oshiriladigan xatti-harakat bo`lib, bu harakat o`zbeklar madaniyatida “tugamoq”, “oxirlamoq” ma`nolarida qo`llaniladi. Shuning uchun ham eng ko`p aza bo`lgan xonadonda fотihaga qo`l

ochilish holati kuzatilishi mumkin. Buning o`zga bir ma`nosi umri tugagan marhum haqiga duo-tilak bildirish. Bu ham tugash bilan bo`g`liq holat.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Duo qilish bilan bog`liq holatlar, asosan, dasturxon yig`ilishidan oldin, minnatdorlik ifodalanganda, yaxshilik tilaganda, qabriston yonidan o`tganda, birovning o`limidan voqif bo`lganda bajariladi.

“O`zbek tilining izohli lug`ati”da bu ibora 4 ma`noda keltirilgan.

DUO[a-iltijo, chaqirish, da`vat **1 din.** *Xudoga yolvorib, unga iltijo qilib, o`zi yoki boshqalar uchun yaxshi, ezgu tilak tilash. Ko`pchilikning duosi ko`p bo`lur. Duo qiling bo`lsin mening farzandim. Maqol. **2 din.** Fotihada o`qiladigan Qur'on surasi. Duoyi fotihadan keyin hammalari o`rinlaridan turib, yo`l hozirligini ko`ra boshladilar. M.Osim, Ibn Sino qissasi.. **3.** Kishining sog`lig`i, o`limi, baxtsizligiga sababchi deb hisoblanuvchi turli yovuz kuchlar, ins-jinslarni qaytarish, kimsani kimsaga isitish va shu kabilar uchun azayimxonlar, duoxonlar tomonidan o`qiladigan yoki tumor va sh.k ga yozib beriladigan matn, xat. O`zbek oyimning miyasi aynadimi yoki sehrchi hinduning duosi asar qildimi, har nuchuk, uch yillik adovatlar va gina –kuduratlar barchasi ham allaqayoqqa qarab uchib ketdilar. A.Qodiriy, “O`tkan kunlar”. **4.**Umuman kishilar bir-birlariga tilaydigan yaxshiliklar; yaxshi niyatlar. Oltin olma, duo ol. Duo oltin emasmi.*

Duo va tilak so`zlarining izohli lug`atdagi ma`nolaridan kelib chiqib, ularni nutqiy aktda ifodalanishi va lingvomadaniy aspektdagi holatlarni hisobga olib, tilak mazmunli birliklarni 3 turga ajratishni lozim topdik: 1- duolar (Xudoyimdan iltijo qilib nimadir so`rash va Qur'on suralaridan keyin o`qiladigan fotihadagi duolar) 2- tilaklar (insonlarning bir-birlariga bildiradigan niyat-tilaklari, biror ish oldidan aytiladigan niyatlar, marosim, urf-odatlarda bildiriladigan tilaklar) 3- duoibad yoki qarg`ishlar (kimnidir qarg`ab, yomonlik tilaydigan duolar va duoxonlar tomonidan qilinadigan issiq-sovuq niyatlari).

Duo nutqiy janri orqali islom diniga e`tiqod qiluvchi o`zbek xalqi Xudoga iltijo qilib o`zi uchun yoki boshqalar uchun yaxshiliklar tilash, to`y-hasham, marosimlarda fotiha o`qish kabilarni amalga oshirib, diniy amallarni ham bajaradilar. Duo nutqiy janri, tilak –istak bildirish, insonlarni qarg`ash bevosita o`sha xalq e`tiqodi va dini bilan uzviy bo`g`liq bo`lib, buni duolarning aytilish o`rni, lisoniy tuzilishi, gap qurilishidagi saqlanib qoluvchi qoliplar, bajaradigan funksiyasi ham asoslab turadi: *Toy onamni oldingi o`rindiqa o`tqizdi. Yarim soatcha aylantirib keldi. Onamning yosh boladek birovning mashinasiga tushib “kataysa” qilishi menga erish tuyildi. Ammo onam xursand edi.*

- *Nordek yigit bo`pti,- dedi quvonib. – Istolovoyda sheppovar ekan. Xudoyo, umridan baraka topsin. [Dunyoning ishlari, 28-b]*

Yoki boshqa bir o`rinda:

*Ermon buva xo`p o`ynadi! Yalang oyog`ining boldiriga yopishgan loy aralash qorlar namatga sachrab ketdi. Keyin u charchab cho`kkalab qoldi. Kavshandoz tomonga qarab yuziga fotiha tortdi.*

*-Ilohi omi-i-in! Yurtimiz tinch bo`lsin, illo- billo qirg`inbarot bo`lmasin. Ollohu akbar! [Dunyoning ishlari, 58-b] kabi misollardan ko`rinib turibdiki, duo-istaklar avvalo, Ollohning nomi bilan aytilib, tilaklar 3-shaxs buyruq-istak maylida, “Xudoyo”, “Ilohi-omin” “Ilohim”, “Inshaalloh” kabi jumlar bilan boshlanadi. Tugallanish qismi ham ko`p tilaklarda takrorlanuvchi “Ollohu akbar”, “Omin”, “Xizr barakasini bersin!”, “Pirlar madad qilsin!” kabi turg`un birikmalar bilan tugallanadi.*

Duo, olqish, qarg`ishlarning tildagi funksional jihatlarini hisobga olib, sotsiologiyaviy, psixologiyaviy, lingvovadaniy, gender tomonlama tahlil qilish mumkin. Duo-olqishlar ko`pchilik tomonidan va yakka tartibda aytiluvchi tilaklarga bo`linadi. Bunda ko`pchilik tomonidan aytiladigan olqish –tilaklarga to`y-hashamlarda, turli yig`inlarda el-yurt uchun tinchlik omonlik so`rash, yurtboshi uchun salomatlik tilash kabilar, mehmondorchilikda ko`pchilik mehmonlar tomonidan mezbolar uchun, yurt egalari uchun sihat tilashlar, sovcilar tomonidan yoshlarga baxt tilashlarni misol tariqasida keltirish mumkin. *Yurtimiz tinch bo`lsin! Ilohim yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, yurtboshimiz omon bo`lsin. Davlatimiz doimo ravnaq topsin. Zurriyatlarimiz texnologiyalarni yanada puxtarroq egallab, bundan-da aqlliroq, zukkoroq, bilimdonroq bo`lib yetishsin va bizdan ko`ra baxtliroq bo`lib yashasin! Jahonda o`zbek eli hamda millatining obro`si tobora oshib boraversin. Barkamol avlodlarimiz ajdodlar merosini e`zozlab, qadriyatlarimizni ardoqlasin. Birdamlik, totuvlik, ahilligimiz yo`qolmasin. Butun dunyo xalqlari halovati buzilmay, baxtli hayot kechirsin!* Mazkur tilak bugungi mustaqillik zamonda qariyalarimiz tilidan aytiladi va unda yurtimiz ozod ekanligi, o`zbek eli va millati butun jahonda o`z mavqeiga ega ekanligi, yangi texnika –texnologiyalar joriy etilganligi bildirilayotgan olqishdan anglashilib turadi. Tilakda sinonimlarning va sifat darajalarining qo`llanilishi bilan yurtimiz kishilariga xos sofdillik fazilati namoyon bo`ladi. Xalqimizga xos ezgu niyat bildirish qadim zamonlardan har zamonaga mos tarzda amalga oshirilib kelingan bo`lib, yurtboshi johil bir kimsa bo`lishiga qaramay unga nisbatan ham yaxshi tilak tilash odat tusiga ega:

*Azizbek tashakkurini bitirgach, hudaychi qo`rg`on ustidagi qahramonlarga hamma tovshini qo`yib qichqirdi.*

*-Bek janoblari bu kungi rustamona g`ayratlaringizga rahmat aytib, haqlaringizga duo qiladirlar!*

*Mudofi`lar dunyoni buzib javob berdilar:*

*-Qulluq taqsir, qulluq! Taqsirimiz dunyo turguncha turib, soyai davlatlari boshimizdan kam bo`lmasin!<sup>1</sup> Asarda Azizbekka ta`rif berilganda uning odil hukmdor ekanligi anglashilmasada, qo`l ostidagi mudofi`lari tomonidan unga nisbatan duo-olqish bildirilishi o`sha davr ruhiyati va siyosiy holat bilan bog`liqdir. Yana bir misol, sobiq SSSR davlatini boshqargan Leninga atab xalq orasida har yig`inda aytilgan tilak-olqishlar va shu kabilar tilaklarni zamon va davr bilan ham bevosita bog`liqligi omillarini ochib beradi. Sotsiologik tahlil talab etuvchi bu kabi tilak-olqishlarning bir qanchasi xalq orasida mavjud bo`lishiga qaramay, ularga qarshi tur ya`ni qarg`ishlar bu borada uchramaydi. Chunki bu holat tabaqalar o`rtasidagi mulozamat-manzirat shakllari bilan baholanadi. Xalqimizda yuqori tabaqa vakillariga qulluq qilish past tabaqa vakillari tomonidan har vaqt ham ixtiyoriy, o`z xohishiga ko`ra bo`lavermaydi. Ular albatta rahbarlari, rahbar o`rinbosarlari, umuman, yuqori lavozim egalariga nisbatan qo`li ko`ksida, ularga jismoniy, ma`naviy, ruhiy salomatlik tilab, qulluq qilib, ma`naviy barkamollik olqishlari bilan alqab mulozamat ko`rsatadi. Bu nafaqat o`zbek xalqi, balki, jahon xalqlari uchun ham xos. Xalq orasida chin dildan o`z vazifasini ado etayotgan rahbarlar, xalq uchun jonini berib faoliyat yuritadigan boshliqlarni xalq orasidagi keksa-yu yosh duo qilishligi, ishlarining rivojini so`rashligi o`zbek xalqining insoniylik fazilatlarini ochib beradi. Masjidlarda o`qiladigan jamoat namozlarida, to`y va boshqa marosimlarda "Yurtboshimiz omon bo`lsin, xalq manfaatlarini uchun qilayotgan harakatlari barokatli bo`lsin!" deb albatta yurtboshi yodga olinishi ham o`zbeklar uchun odatiy tusga aylangan. Har safar ularning tilidan aytilayotgan mazkur tilaklar tilga o`rnashib qolgan til birliklari hisoblanib, xalqning milliyligini namoyon etadi.*

*Sovchilar, mehmonlar tomonidan bildiriluvchi tilak-olqishlar ham ko`pchilik tilidan aytiluvchi olqishlar sirasiga kirib, bu bevosita xalq madaniyatini o`zida namoyon etuvchi urf-odatlar bilan ham chambarchas bo`g`liqdir. Sovchilar oqshom vaqti keldi.*

*Uy bekasi dasturxon yoydi. Xo`jasi mezbonlik qildi.*

*-Xush ko`rdik, xush ko`rdik, -dedi.*

*-Xush vaqt bo`l, qassob, xushvaqt bo`l,-dedi sovchilar.- Qani, ilohi omin, shu uyda katta-katta to`ylar bo`lsin, Olloh-akbar!*

*-Olloh- akbar. Aytganingiz kelsin!*

<sup>1</sup> Abdulla Qodiriy. O`tkan kunlar. T – 2016, 83-b

*Palovdan keyin tarvuz so`yildi<sup>2</sup>`. “Katta-katta”- to`y leksemasiga nisbatan bu sifatning qo`llanilishi o`zbek xalqining to`yga bo`lgan munosabatini ifodalab keladi. Sovchi kutish, ularni aziz mehmonlar hisoblab izzat-hurmat ko`rsatish o`zbek milliy an`analari sanaladi. Sovchilar tilida o`rnashib qolgan tilak-istaklar har vaqt ular tomonidan xonadon egalariga sihat-salomatlik tilash, xonadonga tinchlik, dasturxoniga baraka, rizq tilash kabi odatdan tashqari, agar “ishni pishitsa” yoshlarga baxt-saodat tilash ham sovchilarga xos odat: “Sovchilar dasturxonga o`ralmish nonni o`rtaga qo`ydi. Qalin aytish boshlandi.*

*-Xo`-o`-sh...*

*-Elga qarab aytingda.*

*-Xo`-o`-p...*

*-Bo`ldi-ye, hech kim qiz uzatib boyigan emas.*

*-O`nta qo`y... Shularga rozimisizlar?*

*-Qani, ilohi omin, ikki yosh qo`sha qarisin, Ollohu akbar!*

*Yangasi qiz onasi o`rnida fotiha o`qidi.*

*Non sinsirildi.<sup>3</sup>*

Ikki yoshga baxt tilash nafaqat sovchilik marosimida, nikoh to`yi, nikoh to`yidan keying o`tkaziladigan jamiyki marosimlarda (mas.”yuzochti” “kuyovqochdi”) aytiladi. Bu duo-alqash ko`pincha kattalar tilida uchraydi. Bu yerdagi gap taqdir qo`shilishi, umr yo`li birlashishi haqida boradi.

### **XULOSA**

To`y marosimlarida aytiladigan tilaklarga e`tibor qaratilsa, kelin-kuyovga bildiriladigan yaxshi niyatli tilaklar orqali o`zbek xalqiga xos bo`lgan butun boshli to`y marosimlari assotsiatsiyasi yuzaga keladi: “*Jo`ra, baxtli bo`linglar, to`qqiz oyu to`qqiz kundan keyin beshik to`ylarda xizmat qilaylik*”, “*Hudoyim o`g`il farzandlar bersin, sunnat to`ylarida ham o`zimiz xizmatda bo`laylik*” (kuyovning do`sti tomonidan bildiriladigan tilak). Mazkur tilak o`zbek xalqining har bir a`zosi ongi shuurida saqlanib, to`y marosimlarida bu matnga qayta qayta murojaat qilinadi va bu o`z o`rnida nikoh to`yidan keyin, beshik to`yi, sunnat to`yi kabi lingvomadaniy realiyallarni assotsiatsiyalaydi. Bu kabi tilaklarni ko`plab keltirish va tahlil qilish mumkin va aynan mana shunday tahlil bugungi tilshunoslikda e`tiborga olinishi zarur bo`lgan ishlar sirasiga kiradi.

<sup>2</sup> P.Qodirov. Oydinda yurgan odamlar. T – 2019, 3-b

<sup>3</sup> P.Qodirov. Oydinda yurgan odamlar. T – 2019, 10-b

---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Abdulla Qodiriy. O`tkan kunlar. T – 2016, 83-b
2. Ashirov A. O`zbek xalqining qadimiy e`tiqod va marosimlari. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
3. O`tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari, 28-b.
4. Qodirov P. Oydinda yurgan odamlar. T – 2019, 3-b.
5. Qodirov P. Oydinda yurgan odamlar. T – 2019, 10-b.
6. O`zbek tilining izohli lug`ati, 5 jildli. 1-jildi. –Toshkent.:”O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. –B. 294.
7. Mahmud Sattor. “O`zbek udumlari”. Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. –T, 2007.